

MILLAT ERKI VA RUHI KUYCHISI

Sidiqova Yulduz Sobirovna

Osiyo Xalqaro universiteti o'qituvchisi,

[*yulduzsobirova048@gmail.com.*](mailto:yulduzsobirova048@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erkin Vohidov she'rlari bir nechta asosiy mavzularni qamrab oladi. U nafaqat sevgini, balki odamzodning umumbashariy qadriyatlar, insoniyatning umumiy muammolari, hayot va o'lim, mavjudlik va bo'shliqni ham yoritadi. Shoир ko'pincha ijtimoiy mavzularni o'z she'rlarida ko'taradi, ular inson huquqlari, ijtimoiy adolat va ozodlik kabi masalalaragi ijodi keltirilgan. Millat erki kuychisi bo'lган shoир ko'pincha ijtimoiy mavzularni o'z she'rlarida bayon etgani, ularda inson huquqlari, ijtimoiy adolat va ozodlik, Vatanni biror konkret obyekt yoki holat bilan o'xshatib, uni yanada kuchliroq va ta'sirchanroq hamda inson ruhiyatining nozik tomonlarini, hayotning muammolarini va go'zalligini ajoyib tarzda aks ettirish kabilalar mushohada qilingan.

Kalit so'zlar: Vatan", "Yurtga qaytish", vatan va xalq, simvolizm, "bilim va amaliy ish" hayot va o'lim, mavjudlik va bo'shliq.

Erkin Vohidov— o'zbek she'riyatining yorqin namoyandalaridan biri va davlat arbobi. Shoир inson ruhiyatining nozik va ilg'ash mushkul manzaralarini ta'sirchan aks ettirgan shoир sifatida adabiyotshunoslar tamonidan alohida e'tirof etiladi. Shoирning she'rlari zamonaviy o'zbek she'riyatining muhim qismiga aylangan. Erkin Vohidov she'riyatining o'ziga xos jihatlari shundaki shoир she'rlarida inson ruhiyatining nozik tomonlarini ochib beradi. U sevgi, vatan, umid, sog'inch kabi umumiyy va abadiy mavzularni ko'tarib, o'z she'rlarida insonning ichki dunyosini chuqr ifodalaydi. Vohidovning lirizmi juda sof va samimiy bo'lib, o'quvchi bilan bevosita aloqa o'rnatadi. Uning she'rlari o'quvchiga yo'qotilgan vaqt va joyi haqida o'ylashga, hayotning mazmunini anglashga yordam beradi.

Vohidov she'rlari bir nechta asosiy mavzularni qamrab oladi. U nafaqat sevgini, balki odamzodning umumbashariy qadriyatlar, insoniyatning umumiy muammolari, hayot va o'lim, mavjudlik va bo'shliqni ham yoritadi. Shoир ko'pincha ijtimoiy mavzularni o'z she'rlarida ko'taradi, ular inson huquqlari, ijtimoiy adolat va ozodlik kabi masalalarini o'z ichiga oladi. Bunda, Vohidov zamonaviy she'riyatga mos keladigan, lekin o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari sadiq qolgan uslubi bilan tanilgan. Erkin Vohidovning she'riyatidagi til oddiy va tushunarli bo'lishiga qaramay, juda chuqr ma'no va murakkab badiiy tuzilishga ega. U she'rlarda sodda, lekin ta'sirchan so'zlarni ishlatadi, bu uning she'rlariga yuqori estetik qimmatilik kiritadi. Vohidovning tilida nafaqat badiiy ifoda mavjud, balki o'zbek xalqining milliy ruhini ham aks ettiradi. Uning she'rlari ko'pincha musiqiy ritmga ega, bu esa o'quvchiga she'rlarni yanada chuqurroq va ta'sirchanroq qabul qilish imkonini beradi. Erkin Vohidov o'z she'riyatida simvolizmni keng qo'llagan. U ko'pincha abstrakt tasvirlar, ramzlar va metaforalar yordamida o'zining fikrlarini ifodalaydi. Bu she'rlar ko'plab ma'no qatlamlariga ega bo'lib, ularni turli xil shakllarda talqin etish mumkin. Simvolizm shoирning o'ziga xos uslubi va badiiy ifodalaridan biridir.

To tirikdirki tabiat,
To quyosh sochgayki nur,
Uch egiz bordir tushuncha,
Uch bu so'z yondosh bo'lur:
Mohiru mehru mahorat,

Olimu ilmu amal,
Oshiqu ishqu mashaqqat,
Shoiru she'ru shuur..

Shoir asarida, ayniqsa, sevgi va insoniylikning bir-biriga yaqinligi, bir-birini kuchaytirishi va bir-biriga xizmat qilishi ko'rsatiladi. Erkin Vohidov sevgi orqali faqat ikki odam o'rtasidagi aloqani emas, balki butun insoniyatning ma'naviy o'sishini ifodalaydi. Sevgi esa insonni to'g'ri yo'lga boshlaydigan kuch, uning qalbini uyg'otadigan va hayotini ma'nolashgan omil sifatida aks etadi [Vohidov E, 2018,54].

Vohidovning she'riyatida vatan va xalq muhabbatiga katta o'rin ajratilgan. Shoir o'zining she'rlarida O'zbekistonning tabiatini, xalqining qadriyatlarini va uning tarixiy merosini ulug'laydi. Uning "Vatan", "Yurtga qaytish" kabi asarlari o'zbek xalqining ma'naviyati va tarixini yuksaltirishga, o'z xalqini sevishga undaydi. E. Vohidovning "Vatan" asari, o'zbek adabiyotining eng muhim asarlaridan biridir. "Vatan" (1974) - bu Vatan va ona yurtga sadoqatni, milliy birlashishni, insoniy qadriyatlarni ulug'lovchi she'rdir[Vohidov E,1976, 130].

Erkin Vohidovning she'riyati o'ziga xos va yuksak estetik qiymatga ega. Uning she'rlaridagi lirizm, chuqur ma'no qatlamlari, badiiy ifoda va zamonaviylik unsurlari uni o'zbek adabiyotining eng yaxshi namoyandalaridan biri sifatida tanitadi. Shoir o'z she'rlarida inson ruhiyatining nozik tomonlarini, hayotning muammolarini va go'zalligini ajoyib tarzda aks ettirgan.

E. Vohidovning "Vatan" asarida badiiy o'xshatishlarning ifodalanishi juda muhim san'atsal vosita sifatida ishlatilgan. She'rda vatanning qudrati va ulug'vorligini ta'kidlash uchun turli badiiy o'xshatishlardan, ya'ni metafora, taqqoslash va boshqa badiiy usullardan keng foydalanilgan. Bu usullar orqali Vohidov Vatanni biror konkret obyekt yoki holat bilan o'xshatib, uni yanada kuchliroq va ta'sirchanroq aks ettiradi [Shukur Qurbon,2016,8-12].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Erkin Vohidov o'z ijodi bilan o'zbek she'riyatining rivojiga ulkan hissa qo'shgan shoirdir. Shoirning sherlari xalqchilligi bilan birgalikda chuqur ma'no va mazmunga egaligi tiniqligi, ohangraboligi, samimiyligi, falsafiy qarashlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shoirning she'rlarida adabiyotning turli janrlarini qo'llashi esa uning o'zbek sh'riyatidagi yuksak o'ringa egaligidan dalolat beradi. Bizningcha buyuk shoir quyidagi misralar bilan Vatanimizda o'z haykalini abadiyatga muhlab ketdi..

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o'zbegim.
Senga tengdosh Pomiru
Oqsoch Tiyonshon, o'zbegim.
So'ylasin Afrosiyobu
So'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida
Bitta marjon, o'zbegim.[Qo'shjonov,2006,13]

ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Sobirovna, S. Y. (2023). О 'YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSİYALAR*, 1(3), 93-99.
2. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(2), 87-92.
3. Yulduz, S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 124-129.

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

4. Sobirovna, S. Y. (2022). PEDAGOGNING KREATIVLIGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING ZARUR SHARTI. *PEDAGOOGS jurnali*, 1(1), 219-220.
5. Sobirovna, S. Y. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O 'QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOOGS jurnali*, 1(1), 158-160.
6. Sobirovna, Y. S. (2023). Methods and Tools of Economic Education in Preschool Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 109-115.
7. Sobirovna, S. Y. (2023). METODIST FAOLIYATI ASOSLARI. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(5), 108-114.
8. Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 361-367.
9. Sobirovna, S. Y. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA NUTQ, MULOQOT OQISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 52-62.
10. Yulduz, S. (2024). SYUJETLI-ROLLI OYINLARNING BOLA FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 44-51.
11. Sobirovna, S. Y. (2024). AESTHETIC EDUCATION AS A TOOL TO LEAD CHILDREN TO PERFECTION. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, 2(2), 354-367.
12. Yulduz, S. (2024). Estetik tarbiya bolalarni komillikka yetaklovchi vosita sifatida. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(2), 95-106.
13. Oktam's, S. M. (2023). "Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization". *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 104–108.
14. O'ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O 'YINLAR. *PEDAGOOGS jurnali*, 1(1), 484-486.
15. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 184-191.
16. Akbarovna, I. S. (2023). NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 192-197.
17. Ikromova, S. A. (2023). FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS. *Innovation in Science, Education and Technology*.
18. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 386-388.
19. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.